

«Asaka» bank kichik biznesni rivojlantirishga 1168,0 mlrd.so'm yo'naltirdi

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning tayanch sohasiga aylangan kichik biznesning yanada taraqqiy ettirish, ayniqsa, bank-moliya tizimi zimmasiga yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Shundan kelib chiqib, moliya bozorida yetakchilik mavqeini mustahkamlab kelayotgan "Asaka" Aksiyadorlik tijorat banki tomonidan xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish orqali ishlab chiqarish va servis xizmatlari ko'rsatish sohasida xususiy sektorning salmog'ini oshirish maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda bankning 26 filiali, 86 minibanki 383 maxsus, jamg'arma va ko'chma kassalari orqali 1,7 million nafarga yaqin turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlarga, kichik biznes subyektlari, xususiy tadbirkorlar, dehqon va fermer xo'jaliklariga hamda jismoniy shaxslarga tezkor va sifatli bank xizmatlari ko'rsatilmoqda.

2016 yil 1 yanvar holatiga bank kredit qo'yilmalari hajmi 3 422,9 mlrd.so'mni tashkil qildi. Kredit qo'yilmalarining asosiy qismi uzoq muddatli kreditlardir.

2015 yil davomida iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirishga 2 242,0 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Etiborlisi, iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilayotgan sarmoyalarning salmoqli qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aniqrog'i, mazkur sohaga ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy, innovatsion ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etish va boshqa maqsadlar uchun berilgan kreditlarning umumiy hajmi 1168,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shu bilan birga, kichik korxonalar, mikrofirmalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratilgan mikrokreditlar hajmi 74,8 mlrd.so'mni tashkil qildi. Yosh oilalarga biznes foliyatini yo'lga qo'yish, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan mikrokreditlar hajmi 5,5 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Prezidentimizning 2009 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan qayta ishlovchi ixcham korxonalarni barpo etish, ichki iste'mol bozorini yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda imkoniyatlar eshigini kengroq ochib berdi. Mazkur hujjat ijrosi yuzasidan ajratilgan kreditlar hajmi

qariyb 258,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Pirovardida ko'plab yangi ish joylari ochilib, aholining, ayniqsa, qishloq odamlarining bandligi ta'minlandi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari tomonidan 2009 yil 28 yanvarda imzolangan "Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga binoan qariyb 235,7 mlrd. so'm miqdorida kreditlar berildi. Bu sarmoyalar raqobatbardosh nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar tayyorlashni o'zlashtirish kabi istiqbolli loyihalarga yo'naltirilgani bilan diqqatga sazovordir.

Ma'lumki, qishloq aholining bandligini oshirish, daromadini ko'paytirishda chorvachilik muhim o'rin tutadi. Shuning uchun yurtimizda mazkur tarmoqni rivojlantirish, uni moliyaviy qo'llab-quvvatlash doimiy diqqat markazida. Xususan, o'tgan yili shu maqsadga bank tomonidan 4,4 mlrd.so'm miqdorida mablag'lar yo'naltirildi. Tabiiyki, Prezidentimizning 2006 yil 23 martdagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada dasturilamal bo'lmoqda.

Iqtisodiyotimizda tobora mustahkam o'rin egallayotgan kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ham e'tibordan chetda qolayotgani yo'q. Ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun 12,0 mlrd. so'm, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 176,0 mlrd. so'm, tadbirkor ayollarning loyihalarini moliyalashtirish uchun 100,1 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Shuningdenk, bankning Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi hisobidan kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlar 3,6 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Ushbu kreditlar nafaqat Toshkent shahri yoki viloyat markazlaridagi, balki mamlakatimizning mehnat resurslari zich joylashgan chekka hududlaridagi tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini ham moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilayotgani bilan e'tiborga molik. Bunda asosiy e'tibor mahalliy xom ashyodan import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotir.

"Asaka" bank tomonidan ajratilgan kreditlar hisobidan ko'plab yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu esa bank sarmoyalari mamlakat taraqqiyoti, xalq farovonligi, yurt obodligi yo'lida munosib hissa bo'lib qo'shilayotganidan dalolat beradi.